

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN  
FOYDALANISH  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ  
АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ  
USING INNOVATIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH

**Saidakbarova Dilobar Axadxon qizi**

Far’ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti,  
filologiya va tillarni o‘qitish: Ingliz tili yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi  
[nodiranodira0505@gmail.com](mailto:nodiranodira0505@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish usullari, ingliz tili darslarini o‘quvchilar uchun qiziqarli tashkillashtirish, o‘quvchilarning ingliz tilini qay darajada oson va samarali yo‘llar bilan puxta o‘rganishlari mumkinligi batafsil yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ingliz tili, pedagog, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, mustaqil o‘rgatish texnologiyalari;

**Аннотация:** В данной статье подробно описаны методы преподавания английского языка, как интересно для учащихся организовать уроки английского языка, насколько легко и эффективно студенты могут основательно выучить английский язык.

**Ключевые слова:** английский язык, педагог, интерактивные методы, инновационные технологии, интерактивные методы, технологии самостоятельного обучения;

**Abstract:** This article describes in detail the methods of teaching English, how interesting it is for students to organize English lessons, how easily and effectively students can thoroughly learn English.

**Key words:** English language, teacher, interactive methods, innovative technologies, interactive methods, self-learning technologies;

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng yurtimizda bir qator islohotlar amalga oshirildi, jumladan, ta’lim tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, butun dunyo mamlakatlari kabi bizning yurtimizda ham chet tilini

o‘rganishga talab kuchayib bordi. Umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishni rivojlantirish uchun bir qator islohotlar o‘tkazildi. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va malakalarini baholash maqsadida, chet tilini bilish darajasini baholash uchun milliy sertifikat imtihonlari joriy etildi hamda bu imtihonlar yurtimiz o‘quvchilari uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. Chet tili, xususan, ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Ingliz tili fani to‘rt aspektga, ya’ni qismga: tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish kabi bo‘limlarga bo‘linib, ularning har biriga alohida-alohida tushunchalar berilmoqda.

*Ta’lim texnologiyalari* – bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalanish.

Har bir pedagog, ya’ni o‘qituvchi nafaqat ingliz tili, balki boshqa bir qator fanlarni (tarix, psixologiya va boshqalar) o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarning yurt holiga yaraydigan yetuk shaxs sifatida shakllanishi, chuqur bilim olishi va uni egallashga sharoit yaratib beradi. Til o‘rganish asosida o‘quvchi va talabalarda fanni o‘rganib, ingliz tilini bilgan holda erkin muloqot qilishi, mustaqil fikrlay olishi, tafakkur qilishi hamda o‘z fikrini batafsil omma oldida bildira olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tilini zamonaviy usullar, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar asosida o‘rganish nafaqat o‘quvchilarni til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, shuningdek ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, mustaqil fikrlay olishiga samarali yordam beradi. O‘quvchi yoshlarni ingliz tilini puxta o‘rganishga qiziqtirish, ular uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tushuntirish, ularni qo‘llab-quvvatlash ishlarini olib borish ular uchun manfaatli bo‘ladi, ya’ni o‘quvchilarni tilni tezroq o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini yanayam faollashishida salmoqli natija ko‘rsatadi. Bu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ingliz tilini samarali o‘rgatish uchun pedagoglar quyidagi ishlarni amalga oshirishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- turli elektron manbalardan unumli foydalanish
- o‘quv jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarini yetarli darajada joriy etish

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarni rag‘batlantirishga e‘tibor qaratish hamda baholash sifatini nazorat qilish va shu kabi bir qator tadbirlar;

Ingliz tili darslarining sifat va samaradorligini nazoratga olish, ma‘lumotlarning asosiy qismini kundalik hayotga mos tarzda olish o‘quvchilardagi nutq ko‘rinishlarini o‘sganligida namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘plab ijobiy natijalarni beradi.

Innovatsiya o‘zi nima? *Innovatsiya (inglizcha “innovation”)* - yangilik kiritish, yangilik. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish hisoblanadi va til o‘rganishni kengroq targ‘ib qilish uchun ahamiyatli jihatga ega.

Interaktiv metodlar deganda, jamoa bo‘lib harakat qilish, ya‘ni o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashlarini ta‘minlash hamda jamoa bo‘lib fikrlash tushuniladi. Bu kabi o‘quv metodlaridan unumli foydalanish o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun foydali hisoblanadi, jumladan, ularning birgalikda faoliyat olib borishlarini ta‘minlaydi va bu kabi faoliyatlar o‘quvchilar uchun katta ahamiyatga ega, ya‘ni ularning dunyoqarashlarini kengayishi, tassavur doiralarini rivojlanishi, nutqiy faoliyatlarida o‘sish kuzatilishi hamda bilimlarini kengaytirishlariga keng yo‘l ochadi. Yana shuni ham ta‘kidlash joizki, Makkartning aytishicha, “chet tillarini o‘qitish metodologiyasi o‘tgan yarim asr davomida juda ham rivojlandi”. Binobarin, ingliz tilini o‘qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanish ham foydali hisoblanadi, chunki bu kabi vositalardan foydalanish til o‘rganayotgan o‘quvchining xotirasini yaxshilaydi hamda so‘zlarning xotirada tez yodda saqlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat ingliz tilini, balki boshqa chet tillarni o‘rganishda ham zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, ingliz tilini oladigan bo‘lsak, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ingliz tili 4 aspektga bo‘lib o‘rganiladi (o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozish hamda gapirish). Ularning har birini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo‘l keladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. J. Jalolov. “CHET TILI O‘QITISH METODIKASI” (“FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY”), Toshkent, 2012
2. N. Q. Xatamova, M. N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo‘llanma), Navoiy, 2006, 40 bet
3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1221-1224.
4. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
5. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
6. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
7. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
8. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).

9. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@scientifictext.ru. UIF-2022, 8.
10. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
11. Гафурова, Н. Р. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.
12. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 96
13. Ubaydullaeva, D. (2022). ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ҚЎШМА ГАПЛАР ТАВСИФИ, ТАСНИФИ ВА МЕТАТИЛИ МАСАЛАЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В6), 560-564.